

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. OECD (2022). *OECD/INFE Toolkit for Measuring Financial Literacy and Financial Inclusion 2022*. OECD Publishing, Paris. <https://doi.org/10.1787/cbc4114f-en>
2. *Countrymeters* (2026). *Uzbekistan population*. <https://countrymeters.info/en/Uzbekistan> [murojaat sanasi: 01.03.2026].
3. *World Bank* (2025). *Uzbekistan Overview*. <https://www.worldbank.org/en/country/uzbekistan/overview> [murojaat sanasi: 01.03.2026].
4. *UzDaily* (2025). *Uzbekistan's GDP amounted to US\$114.96 billion in 2024 // Statistics Agency under the President of the Republic of Uzbekistan*. <https://www.uzdaily.uz/en/uzbekistans-gdp-amounted-to-us11496-billion-in-2024/>
5. *TheGlobalEconomy.com* (2024). *Uzbekistan: Tax revenue, percent of GDP (World Bank data)*. https://www.theglobaleconomy.com/Uzbekistan/Tax_revenue/
6. OECD (2021). *Financial Literacy Levels in the Commonwealth of Independent States*. OECD Publishing, Paris. <https://doi.org/10.1787/394dbe88-en>
7. Demirgüç-Kunt, A., Klapper, L., Singer, D., Ansar, S. (2022). *The Global Findex Database 2021*. Washington, DC: World Bank.
8. *Gazeta.uz* (2025). *O'zbekistonning 2026-yilga mo'ljallangan davlat budjeti loyihasi*. 05.12.2025. <https://www.gazeta.uz/oz/2025/12/05/budget-2026/>
9. Banerjee, A., Anasbekov, S., Mamutova, K. (2025). *Enhancing Financial Inclusion in Uzbekistan*. SSRN. <https://doi.org/10.2139/ssrn.5743203>
10. Bhatti, M.I., Hamelin, N., Saidov, T. (2024). *What drives the hidden side of Uzbekistan's shadow economy? Post-Communist Economies*, 36(3), 281–297. <https://doi.org/10.1080/14631377.2023.2287757>

ALTERNATIV MOLIYA EKOTIZIMI ORQALI DUALISTIK TIZIM MODELINI TA'LIM METODLARI ASOSIDA TADQIQ QILISH

Nurmanova Maxfuza.Urozo

Iqtisodiyot va Pedagogika Universiteti Samarqand kampusi Dotsent v., b.

Annatsiya. Ushbu maqolada alternativ moliya ekotizimi sharoitida dualistik tizim modelini ta'lim metodlari asosida tadqiq qilish masalalari yoritilgan. Tadqiqotda an'anaviy va raqamli moliya institutlari o'rtasidagi o'zaro integratsiya, ularning ta'lim jarayoniga ta'siri hamda dual ta'lim mexanizmlarining innovatsion rivojlanishdagi o'rni tahlil qilingan. Shuningdek, *fintech*, *kraudfanding* va *blokcheyn* texnologiyalari asosida shakllanayotgan yangi moliyaviy muhitning pedagogik modellashtirish imkoniyatlari ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari alternativ moliya ekotizimi asosida dualistik ta'lim modelini joriy etish samaradorligini asoslab beradi.

Kalit so'zlar. *Alternativ moliya, dualistik tizim, moliya ekotizimi, fintech, kraudfanding, blokcheyn, ta'lim metodlari, innovatsion model.*

Zamonaviy iqtisodiy sharoitda alternativ moliya ekotizimi an'anaviy bank tizimiga muqobil ravishda rivojlanib, moliyaviy xizmatlar ko'lamini kengaytirmoqda. Ayniqsa, World Bank va International Monetary Fund hisobotlarida raqamli moliyaviy xizmatlar va *fintech* infratuzilmasining iqtisodiy o'sishga ta'siri alohida ta'kidlanadi. Dualistik tizim modeli esa nazariya va amaliyotni integratsiyalashgan holda o'qitish mexanizmini nazarda tutadi. Ushbu model alternativ moliya ekotizimi sharoitida yanada samarali qo'llanilishi mumkin, chunki u real moliyaviy platformalar va ta'lim jarayonini uyg'unlashtiradi.

Barchamizga ma'lumki ta'lim sohasidagi islohotlar mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning uzviy va hal qiluvchi yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "O'zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, bunga faqat jadal islohotlar, ilm-ma'rifat va innovatsiya bilan erisha olamiz. Buning uchun, avvalambor, tashabbuskor islohotchi bo'lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalashimiz zarur. Shuning uchun ham bog'chadan boshlab oliy o'quv yurtigacha - ta'limning barcha bo'g'inlarini isloh qilishni boshladik".¹

Maqolaning maqsadi — alternativ moliya ekotizimi asosida dualistik ta'lim modelini nazariy va amaliy jihatdan asoslash hamda uning texnologik mexanizmlarini ishlab chiqishdir².

So'nggi yillarda global turizm industriyasida raqobatning kuchayishi, xizmatlar diversifikatsiyasining jadallashuvi va xalqaro akademik mobillikning kengayib borishi natijasida ta'lim turizmi jahon bozorining eng dinamik rivojlanayotgan segmentlaridan biriga aylandi. UNESCO, OECD va UNWTO ma'lumotlariga ko'ra, har yili millionlab talabalar, tadqiqotchilar va yosh mutaxassislar qisqa va uzoq muddatli o'quv dasturlari, almashinuvlar, stajirovkalar, til kurslari, ilmiy konferensiyalar va amaliy seminarlar uchun xorijga safar qilmoqda. Bu jarayon nafaqat intellektual almashinuvni kuchaytiradi, balki mamlakatlarning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy salohiyatini oshirishda ham muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

Alternativ moliya ekotizimining nazariy asoslaridan kelib chiqib tahlil qilsak, alternativ moliya tushunchasi kraudfanding, P2P kreditlash, raqamli to'lov tizimlari va kriptoaktivlarni o'z ichiga oladi. Cambridge Centre for Alternative Finance tadqiqotlariga ko'ra, alternativ moliya bozori so'nggi o'n yillikda eksponensial o'sish sur'atlarini ko'rsatmoqda.

Alternativ moliya muhitida bu model quyidagi afzalliklarni beradi:

- Talabalarni real fintech platformalar bilan ishlashga o'rgatish;
- Investitsion risklarni modellashtirish;
- Startup loyihalarni kraudfanding orqali sinovdan o'tkazish.

Bu jarayonni innovatsion integratsiya mexanizmlari bilan tahlil qilinsa, Dual modelni alternativ moliya ekotizimiga integratsiya qilish quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- Raqamli platformalarni o'quv dasturiga kiritish;
- Amaliy fintech laboratoriyalarini tashkil etish;
- Blokcheyn asosidagi simulyatsion modellarni yaratish.

Muammoni hal qilish usullari. Fintech platformalari — real vaqt rejimida moliyaviy operatsiyalarni o'rganish

Dunyo bo'ylab rivojlanayotgan va o'tgan yilning o'zida 15 milliard sarmoya kiritgan moliyaviy texnologiya Fintech.

Dunyo aholisining uchdan bir qismi ikki yoki undan ortiq fintech xizmatidan foydalanadi. Ammo foydalanuvchilar ko'pincha ular foydalanadigan Ilovalar "fintech" ekanligini bilishmaydi. Fintech nima ekanligini aniq tushuntirish vaqti keldi.

Moliyaviy texnologiyalar - (Fintech) Moliyaviy texnologiya (Fintech) biz moliyaviy xizmatlarni taqdim etish va ulardan foydalanishni yaxshilashga qaratilgan yangi texnologiyani tavsiflash uchun ishlatadigan atamadir. takomillashtirish va avtomatlashtirish. Fintech, so'z, "moliyaviy texnologiya" ning birikmasidir.


Masalan, Harvard University va University of Oxford ilmiy markazlarida fintech va ta'lim integratsiyasi bo'yicha maxsus laboratoriyalar faoliyat yuritadi.

Blokcheyn texnologiyasi — shaffoflik va xavfsizlikni ta'minlash³

Blokcheyn (ing.blockchain-bloklar zanjiri)- ma'lum qoidalarga ko'ra tuzilgan uzluksiz ketma-ket, axborotdan iborat bloklar zanjiri. Uy yoki mashina xarid qilish, kredit olish, pul o'tkazishlar – ushbu amaliyotlar haqidagi barcha ma'lumotlar davlat muassasalari va xususiy kompaniyalar serverlarida qayd qilinadi va markazlashgan holda joylashtiriladi. Bu ko'pincha suiste'molikka olib keladi – hohlaganda har qanday bazaga kirib, unga o'zgartirishlar kiritish mumkin.

Bloklardan birini buzib, undagi ma'lumotlarni o'zgartirish mantiqsiz, chunki barcha bloklarni buzishga to'g'ri keladi, buning uchun esa ulkan hisoblash quvvatlari

lozimdir – chunki yangi bloklar oldingi bloklar haqidagi ma'lumotlarni shifrlangan holda o'zida saqlaydi.



1-rasm. Blokcheyn texnologiyasining ishlash printsipining umumiy sxemasi

1-rasmdan ko'rinib turibdiki, bunda har bir blok ma'lumotlar yig'indisini tashkil qiladi. Shundan so'ng blokdagi ma'lumotlarni hash qiymatlari zanjiridagi keying blok qiymatiga oshiradi. Bunda blokcheyn texnologiyasi taqsimlash, ochiqlik va xavfsizlik prinsipini o'z ichiga oladi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, alternativ moliya ekotizimi sharoitida dualistik tizim modeli ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. U nazariya va amaliyotni uyg'unlashtirib, talabalarni zamonaviy moliyaviy texnologiyalar bilan ishlashga tayyorlaydi.

Dual model asosida yaratilgan innovatsion ta'lim tizimi iqtisodiy barqarorlik va raqamli transformatsiya jarayonlarida muhim o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurahmonova, Z. (2023). 'Trends of academic mobility in Uzbekistan, *Journal of International Education Research*, 19(2), pp. 25–38.

2. Zetzsche, D.A., Buckley, R.P., Arner, D.W., Barberis, J.N. (2017). *FinTech and RegTech: Impact on Regulators and Banks. Journal of Banking Regulation*, Vol.18, No.4, pp. 1–14.

3. Cambridge Centre for Alternative Finance (2023). *Global Alternative Finance Market Benchmarking Report*. pp. 5–39.

4. Баканов М.И., Шеремет А.Д. *Теория экономического анализа*. М.: Финансы и статистика, 1999.

5. Бариленко В.И. *Учет, анализ и аудит внешнеэкономической деятельности: Учебное пособие*. М.: ИНФРА - М, 2009. 458 с.